

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari | 117 |
| Sh.Q.Yuldasheva | |
| Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi..... | 122 |
| Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova | |
| Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringning o'zgarishi | 127 |
| X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov | |
| Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliylklari | 133 |
| S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva | |
| Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili | 138 |
| M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov | |
| Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili | 143 |
| X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov | |
| Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L..... | 149 |
| S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev | |
| Farg'ona vodiysi Cladocera (<i>Crustacea: Branchiopoda</i>) lari ro'yxati..... | 157 |
| Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov | |
| Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi..... | 166 |
| M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova | |
| Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori..... | 176 |
| M.A.Davidov | |
| Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari | 181 |
| X.N.Raximov, G.T.Djalilova | |
| Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariiga ta'siri | 186 |
| M.R.Qoriyev | |
| Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar | 191 |
| O.N.Nasirov | |
| Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi | 196 |
| R.A.Ikromov | |
| Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli | 200 |
| S.Nishonova | |
| Maqollar paremiologik birlik sifatida | 205 |
| Sh.A.Tadjibaeva | |
| Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari | 208 |
| S.S.Jabborova | |
| Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalananish istiqbollari..... | 213 |
| E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov | |
| Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari..... | 219 |
| K.M.Nilufar | |
| Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi..... | 222 |
| T.Quyliyev | |
| Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli | 227 |
| B.M.Qandov | |
| Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli | 233 |
| Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova | |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri | 238 |
| F.F.Muydinov | |
| Tibbiy ta'linda media ta'limga asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari..... | 242 |
| Z.S.Paziljanova | |



УО'К: 546.05;546.06;546.742;548.315;548.312.6;661.743.2

**NIKEL(II) ATSETATI HAMDA QAHRABO KISLOTASINING NATRIYLI TUZI BILAN
KOMPLEKSI SINTEZI VA STRUKTURASI**

**СИНТЕЗ И СТРУКТУРА КОМПЛЕКСА АЦЕТАТА НИКЕЛЯ(II) И НАТРИЕВОЙ СОЛИ
ЯНТАРНОЙ КИСЛОТЫ**

**SYNTHESIS AND STRUCTURE OF THE COMPLEX OF NICKEL(II) ACETATE AND SODIUM
SALT OF SUCCINCIC ACID**

Eshchanov Erkabay Uskunovich¹ 

¹Urganch davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Hasanov Shodlik Bekpo'latovich² 

²Xorazm Ma'mun akademiyasi, kimyo fanlari nomzodi

Xudoyberganov Oybek Ikromovich³ 

³Xorazm Ma'mun akademiyasi, k.f.f.d.(PhD)

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna⁴ 

⁴Xorazm Ma'mun akademiyasi, k.f.f.d.(PhD)

Kalandarova Sanobar Maxsudbek qizi⁵ 

⁵Urganch davlat universiteti, magistrant

Xo'sinova Shohida Ozodboy qizi⁶ 

⁶Urganch davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Maqolada nikel(II) atsetatining qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan yangi geterometallik kompleks birikmasi sintez qilingan va ularning tarkibi, tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy metodlar: skannerlovchi elektron mikroskop-energiya dispersion tahlil (SEM-EDT), rentgenofazaviy tahlil, termik analiz va rentgen strukturaviy tahlil yordamida o'rganilgan. Kompleks birikma tarkibidagi markaziy atom nikel, atsetat qoldig'i tarkibidagi karboksil guruhining kislород atomi va qahrabo kislotasining natriy tuzi bilan ham karboksil guruhidagi kislород atomi orqali o'zaro bog'lanib, koordinatsion soni 6 ga teng bo'lgan kompleks birikmani hosil qilgan.

Аннотация

В статье освещены результаты исследований по синтезу нового гетерометаллического комплексного соединения ацетата никеля(II) и янтарной кислоты с натриевой солью и определению их состава, строения и свойств физико-химическими методами: растровым электронным микроскопом-энергодисперсионным анализом (SEM-EDT), рентгенофазовый анализ, термический анализ и рентгеноструктурный анализ. Центральным атомом комплексного соединения является никель, атом кислорода карбоксильной группы ацетатного остатка и натриевая соль янтарной кислоты соединены между собой через атом кислорода карбоксильной группы, образуя комплексное соединение с координационным числом 6.

Abstract

This article highlights the research results on the synthesize of a new heterometallic complex compound of nickel(II) acetate and succinic acid with the sodium salt and the determination of their composition, structure and properties by physico-chemical methods: scanning electron microscope-energy dispersive analysis (SEM-EDT), X-ray phase analysis, thermal analysis and X-ray structural analysis. The central atom of the complex compound is nickel, the oxygen atom of the carboxyl group of the acetate residue and the sodium salt of succinic acid are interconnected through the oxygen atom of the carboxyl group, forming a complex compound with a coordination number of 6.

Kalit so'zlar: Nickel(II) atsetati, qahrabo kislotasining natriyli tuzi, ligand, termik analiz, SEM-EDT, rentgenfazaviy va rentgen strukturaviy tahlil, kompleks birikma, koordinatsion son, Mercury dasturi, koordinatsion sig'imi, kompleks birikma barqarorligi.

Ключевые слова: Ацетат никеля(II), натриевая соль янтарной кислоты, лиганд, термический анализ, SEM-EDT, рентгенфазовый и рентгеноструктурный анализ, комплексное соединение, координационное число, программа «Mercury», координационная емкость, стабильность комплексного соединения.

Key words: Nickel(II) acetate, succinic acid with the sodium salt, ligand, thermal analysis, SEM-EDT, X-ray phase and X-ray structural analysis, complex compound, coordination number, Mercury program, coordination capacity, complex compound stability.

KIRISH

Ushbu maqolada kompleks birikmalar kimyosining yangi yo'nalishlaridan bo'lgan geterometall koordinatsion birikmalar sintezi va ularning fizik-kimyoviy metodlar bilan tahlili haqida ma'lumotlar berilgan. Hozirgi davrda kompleks birikmalar kimyosi bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan tarkibida ikki xil metall atomi tutgan koordinatsion birikmalarni sintez qilish va ularning tahlilini amalga oshirish bo'yicha ishlar keng ko'lamda amalga oshirilyapti. Ushbu sintezlangan koordinatsion birikma tarkibida ikki xil metall atomi va turli xil kislota qoldig'i tutganligi, shu jumladan, ular tarkibida juft elektronga ega geteroatomlarning mavjudligi, ularning 3d-metallari bilan kompleks birikmalar hosil qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida "iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan[1]. Ushbu yo'nalishda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan, kimyo sanoatini rivojlantirishda, yangi kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning biologik faoliyklarini tadqiq etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masalalardan kelib chiqqan holda laboratoriya sharoitida o'simliklarning qurg'oqchilik va turli zararli hasharotlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi qo'shimcha biologik faol ozuqa modda sifatida ishlatiluvchi biostimulyator sintezini amalga oshirildi. Sintezlangan bu biostimulyator Xorazm vohasida o'suvchi kartoshka, pomidor, qovun, tarvuz, qand lavlagi kabi o'simliklarda sinab ko'rildi.

Tadqiqotning maqsadi nikel(II) atsetati hamda qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan kompleksining sintezi, tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun nikel(II) atsetatining, qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan kompleks birikmasining sintez qilish usullari ishlab chiqilgan va sintezi amalga oshirilgan. Sintez qilingan birikmlarning tarkibi va tuzilishi SEM-EDT, rentgenfazaviy tahlil, termik analiz va rentgen strukturaviy tahlil metodlari yordamida o'rjanilgan.


ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Adabiyotlarda nikel(II)atsetatining va qahrabo kislotasining kompleks birikmalari sintezi, tuzilishini o'rjanish va amaliy qo'llanilishi bo'yicha ishlarning natijalarini umumlashtirgan ko'plab sharxlar, maqolalar mavjud. Shuningdek, adabiyot manbalari tahlilining ko'rsatishicha, nikel(II) atsetati va qahrabo kislotasining kompleks birikmalarni tahlili qilish bo'yicha keng miqyosda tajriba natijalari bo'lishiga qaramasdan, bu ligandlar asosida olingan geterometall kompleks birikmalarni sintezi va tuzilishi yetarli darajada o'rjanilmagan. Shu sababli, nikel(II) atsetati hamda qahrabo kislotasi natriyli tuzi bilan geteroyadroli kompleks birikmasini sintez qilish, fizik-kimyoviy va biologik faolligini aniqlash alohida ilmiy qiziqish tug'diradi. Zhi Dan Yan, Na Xing, Yan Zhang, Xi Tong Ma, Jian Song, Xin Liu, Yong Heng Xing, Tu Lee, Pu Yun Wang, S.R.Perumalla, V.A. Myshkin, D.V. Srubilin, D.A. Enikeyev, M.A. Isakova, L.T. Idrisova, D.M. Galimov, I.D. Isakov kabi olimlar tomonidan geterometall poliyadroli kompleks birikmalarning tuzilishi, tarkibi, xossasi va biologik faolligini o'rjanish bo'yicha bir qancha ishlar tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotlar natijasida gomo-va geterometall koordinatsion birikmalarni sintezi amalga oshirilgan, ularning tuzilishi, kimyoviy va ayrim fizik xossalari tahlil qilingan[2].


Ishda zamonalaviy fizik-kimyoviy metodlar: skanerlovchi elektron mikroskop-energiya dispersion tahlil (SEM-EDT), rentgenfazaviy tahlil, termik analiz va rentgen strukturaviy analiz usullaridan foydalilanigan[3]. [(SucNa₂)₂Ni(CH₃COO)₂] tarkibli kompleks birikma sintezi quyidagi metodika bo'yicha amalga oshirildi. Qaytarma sovutgich bilan jihozlangan ikki og'izli kolbaga, 0,001

KIMYO

mol $\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ tuzining suvdagi 10 ml eritmasi quyildi. Eritma ustiga ikkinchi eritma $0,002$ mol qahrabo kislotasi natriyli tuzining etanoldagi 20 ml eritmasi, har 10 minut davomida 5 ml dan qo'shiladi. Aralashma 50 minut davomida aralashtirib turgan holda, qaynatildi [4]. Erituvchisi xona haroratida bug'latildi. Olingen mahsulot dietil efirda yuvildi. Olingen och-yashil rangli modda ikki kun davomida ochiq havoda, so'ngra quritish shkafida 6 kun davomida quritildi va kompleks birikmaning monokristali o'stirildi. Unum 76% . $T_{\text{suyuq}} = 146^\circ\text{C}$. Laboratoriya sharoitida sintezlangan yangi tarkibli $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikmaning tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin.



1-rasm. Sintezlangan $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ tarkibli kompleks birikma strukturasi
Sintez qilingan kompleks birikmadagi elementlarning miqdorlari (uglerod, kislород ва metall atomlari) SEM-EDT metodi yordamida analiz qilindi [5]. Komplekslarning mikrostrukturalari va EDT diagrammalari 2-rasmda keltirildi.




2-rasm. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikmasining mikrostrukturasi va EDT diagrammasi

NATIJALAR VA MUHOKAMA


$[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ tarkibli kompleks birikmaning rentgenfazaviy tahlili amalga oshirildi [6].

3-rasm. a- $\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$, б-SucNa, c- $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikmasi



rentgenogrammalar

$[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleksining termik barqarorligi va tarkibida suv molekulalari bor yoki yo'qligini aniqlash maqsadida termik analiz o'tkazildi[7,8]. Termik analiz natijalari: birikmalarni termik parchalanish bilan boruvchi issiqlik effekti tabiat, temperatura effekti intervallari va ularning tabiat, massani *mg* larda kamayishi 4-rasmida keltirilgan. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ tarkibli kompleks birikmaning DTA egrisida 76, 92°C da endotermik effektlar va 234, 324, 332, 344°C da ekzotermik effektlar mavjud. 76°C dagi effekt suvning parchalanishiga mos keladi.



4-rasm. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikmasi derivatogrammasi

Keyingi 76-234°C termoeffektlarda asosiy massaning 8,68 % ya'ni 0.564 *mg* yo'qotiladi. Keyingi parchalanish 332-344°C oralig'iда kechadi. Unda asosiy massaning 38,6% organik kislota qoldig'ining parchalanishi va termoliz mahsuloti sifatida nikel oksidining hosil bo'lishi o'rganildi. Aralash ligandli komplekslarning derivatografik tahlili natijasida namunaning massasi, komplekslarning parchalanish massasi va komplekslarning termik barqarorligi harorat ortgani sari o'zgarib borishi aniqlandi. [Sintezlangan \$\[\(\text{SucNa}_2\)_2\text{Ni}\(\text{CH}_3\text{COO}\)_2\]\$ kompleks birikma monokristallari o'stirilib.](#) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutining jamoaviy foydalanish markaziga o'rnatilgan XtaLAB Synergy(Rigaki, Yaponiya) difraktometrida rentgenstrukturaviy tahlili o'tkazildi[9]. Rentgen strukturaviy tahlil natijalari Xcalibur Oxford Diffraction avtomatik difraktometrida 293 K haroratda (Cu Karadiation, $k = 1,54184 \text{ \AA}$, xscan rejimi, grafit monoxromator) olingan.


1-jadval

Qahrabo kislotsasining natriyli tuzi va Ni(II) atsetati bilan olingan kompleks birikmasi monokristalining kristallografik ma'lumotlari va strukturasiga aniqlik kirituvchi parametrlar

| Parametr | Qiymatlar | Parametr | Qiymatlar |
|--|--|--------------------------|--------------------------------|
| Ni li-kompleks birikma: $[\text{NiC}_{12}\text{H}_{14}\text{Na}_4\text{O}_{12}]$ | | | |
| Formula | $\text{NiC}_{12}\text{H}_{14}\text{Na}_4\text{O}_{12}$ | Kristall o'lchami, mm | $0.23 \times 0.17 \times 0.14$ |
| Molekulyar massa | 500.88 | Harorat T, °K | 298 |
| Singoniya | triklinik | Skanerlash oralig'i θ, ° | 3,6; -61,80 |
| Fazoviy guruh | A1 | Interval h,k,l | -20/24, -8/12, -24/22 |
| a, Å | 11.94 | Jami reflekslar | 4724 |
| b, Å | 16.88 | Mustaqil reflekslar Soni | 1574 |

KIMYO

| | | | |
|------------------------------------|-------|--|---------------------|
| c, Å | 16.88 | R _{int} | 0.052 |
| α ° | 90 | F2≥2σ (F2) Kriteriy | 1096 |
| β ° | 90 | Aniqlagan parametrlar | 246 |
| γ ° | 90 | Strukturani aniqlash sifati | 1.18 |
| V, Å ³ | 3406 | R ₁ , wR ₂ (I>2σ (I)) | 0.0456, 1.633, 1.08 |
| Z | 2 | Δρ _{min} / Δρ _{max} , eÅ ⁻³ | -0.46 / 0.58 |
| D _x , g/cm ³ | 0.488 | CCDC-raqami va ref-kod | |
| μ(CuKa), mm ⁻¹ | 0.327 | | |



5-rasm. Sintezlangan $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ tarkibli kompleks birikma kristalining tasviri


2-jadval

Kompleks birikmaning bog' uzunliklari va bog'lanish burchaklari

| Bog' | d, Å | Burchak | ω, grad |
|-------------|-------|-----------------|---------|
| Ni(1)-O(1) | 1.806 | O(1)-Ni(1)-O(2) | 81.03 |
| Ni(1)-O(2) | 1.799 | O(1)-Ni(1)-O(3) | 79.89 |
| Ni(1)-O(3) | 1.802 | O(1)-Ni(1)-O(4) | 159.0 |
| Ni(1)-O(4) | 1.792 | O(1)-Ni(1)-O(5) | 111.8 |
| Ni(1)-O(5) | 1.841 | O(1)-Ni(1)-O(6) | 83.67 |
| Ni(1)-O(6) | 1.832 | O(2)-Ni(1)-O(3) | 129.8 |
| Na(1)-O(11) | 2.159 | O(2)-Ni(1)-O(4) | 88.03 |
| Na(2)-O(10) | 2.159 | O(2)-Ni(1)-O(5) | 150.5 |
| Na(3)-O(9) | 2.160 | O(2)-Ni(1)-O(6) | 86.09 |
| Na(4)-O(12) | 2.160 | O(3)-Ni(1)-O(4) | 93.84 |
| O(1)-C(1) | 1.356 | O(3)-Ni(1)-O(5) | 79.43 |
| O(2)-C(3) | 1.358 | O(3)-Ni(1)-O(6) | 136.5 |
| O(3)-C(5) | 1.211 | O(4)-Ni(1)-O(5) | 86.28 |
| O(4)-C(8) | 1.208 | O(4)-Ni(1)-O(6) | 113.5 |
| O(5)-C(12) | 1.220 | O(5)-Ni(1)-O(6) | 69.91 |

Kristalning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi A1, a=11.94Å, b=16.88Å, c=16.88Å, α=90°, β=90°, γ=90°, V=3406Å³, Z=2. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleksi monoyadroli bo'lib Ni²⁺ ionining qahrabo kislotosi va sirka kislota qoldig'i bilan hosil qilingan, neytral tabiatga ega. Kompleks tarkibidagi Ni(1)-O(1), Ni(1)-O(2), Ni(1)-O(3), Ni(1)-O(4) va Ni(1)-O(5),

Ni(1)-O(6) bog'lari orasidagi masofasi qiymati mos ravishda 1.8066 Å, 1.7995 Å, 1.8020 Å, 1.7922 Å va 1.8417 Å, 1.8328 Å ga teng[10,11].



6-rasm. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikmadagi atomlararo bog'lanishlar

3-jadval

Kristall tuzilishidagi vodorod bog'lar(\AA)

| Bog'lanish D-H···A | Masofa, \AA | | | Burchak D-H···A, grad. | Atom koordinatalari, \AA |
|--|----------------------|-------|-------|------------------------------|-----------------------------------|
| | D-H | H···A | D···A | | |
| $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ | | | | | |
| C(4)--H(9)...O(4) | 1.11 | 2.49 | 3.081 | 112 | 1-x,-y,1-z |
| C(4)--H(10)...O(6) | 1.11 | 2.44 | 3.032 | 112 | x,1/2-y,1/2+z |
| C(7)--H(12)...O(2) | 1.12 | 2.35 | 3.066 | 121 | 1-x,-1/2+y,3/2-z |
| C(7)--H(12)...O(7) | 1.14 | 2.51 | 3.291 | 126 | x,1/2-y,1/2+z |
| C(3)--H(3A)...O(3) | 1.12 | 2.39 | 3.178 | 147 | 1-x,1-y,1-z |
| O(3)--H(3C)...O(4) | 0.85 | 1.89 | 2.728 | 170 | 1-x,1/2+y,3/2-z |
| O(3)--H(3D)...O(1) | 0.85 | 1.94 | 2.730 | 155 | x,3/2-y,1/2+z |

O(1)-Ni(1)-O(2), O(1)-Ni(1)-O(3), O(1)-Ni(1)-O(4), O(1)-Ni(1)-O(5) va O(1)-Ni(1)-O(6), O(2)-Ni(1)-O(3) ning burchak kattaliklari mos ravishda 81.03° , 79.89° , 159.06° , 111.81° va 83.67° , 129.83° ga teng ekanligini ko'rish mumkin.

Kompleks birikmadagi markaziy atom nikel triklinik tipida ikkita molekula atsetat qoldig'i kislород atomi va qahrabo kislota qoldig'idagi kislород atomlari bilan koordinatsiyalanadi. Bunda atsetat qoldig'i kislород atomi orqali monodentat va ikkita qahrabo kislotsasi qoldig'i esa kislород atomlari orqali bidentat ligandlar sifatida koordinatsiyalanishda qatnashadi. Markaziy atom nikelning koordinatsion soni 6 ga teng bo'lib, sp^3d^2 xolatda gibridlangan. Tahlil natijalari ko'ra, kompleks birikma tarkibidagi C(4)--H(9)..O(4), C(4)--H(10)..O(6), C(7)--H(12)..O(2), C(7)--H(12)..O(7), O(3)--H(3C)..O(4), O(3)--H(3D)..O(1) turdagи vodorod bog'lar (3-jadval) hisobiga bc tekislikiga parallel ikki o'lchamli qatlama hosil bo'lganligi hisobiga barqaror bo'ladi[12].

XULOSA

Sintez qilingan kompleks birikmaning tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan o'rganilganda $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ kompleks birikma tarkibida ikki xil tabiatli metall atomlari borligi va ular geterometall poliyadroli kompleks birikma hosil qilishi aniqlandi. Yaratilgan sintez metodi o'xshash koordinatsion birikmalarni keyinchalik sintez qilishda qo'llanilishi mumkin. $[(\text{SucNa}_2)_2\text{Ni}(\text{CH}_3\text{COO})_2]$ koordinatsion birikmaning monokristallari o'stirildi va unga tegishli parametrlar mercuriy dasturi yordamida aniqlanib, jadval ma'lumotlari yordamida ifodalab berildi. Olingan geterometall poliyadroli kompleks birikmada markaziy atom nikel bo'lib

KIMYO

uning, koordinatsion soni 6 ga teng ekanligini va gibridlanishi sp^3d^2 holatda bo'lishini rentgen strukturaviy tahlildan olingan ma'lumotlarga tayanib aytish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Шакирова Ю.Р.(2014). Гомо- и гетерометаллические люминесцентные комплексы металлов подгруппы меди: син-тез и исследование фотофизических свойств: дис. ... канд. хим. наук : 02.00.01. СПб, 181.
3. Khasanov Sh.B., Ibodullaeva T.A., Abdullaeva Z.Sh., Khudoyberganov O.I. (2023). Synthesis and properties of the coordination compound of calcium stearate with thiocarbamide Azerbaijan Chemical Journal, 2, 111–115.
4. Прямой синтез координационных соединений.(1997). Под ред. акад. НАН Украины Скопенко В. В. Киев: Вент, 175 с.
5. Корусенко П. М., Несов С. Н., Ивлев К. Е. (2022) Морфология, структура и электрохимические свойства композита MnO_x @ CNTs: исследование методами SEM, EDX, XPS и CVA. *Омский научный вестник*, 2(182), 86-92.
6. Ковба П. М., Трунов В. К. (1976). Рентгенофазовый анализ. М.: МГУ, 232.
7. Топор Н.Д., Огородова Л.П., Мельчакова Л.В.(1987) Термический анализ минералов и неорганических соединений. Москва: Изд-во МГУ, 190.
8. Шаталова Т.Б., Шляхтин О.А., Веряева Е.(2011). Методы термического анализа. Москва, 72.
9. Савицкая Л.К.(2006). Рентгеноструктурный анализ: учебное пособие. Томск: СКК-Пресс, 274.
10. Macrae C.F, Bruno I.J, Chisholm J.A. et. al. (2008). Mercury CSD 2.0 – new features for the visualization and investigation of crystal structures. *J. Appl. Cryst.*, 41, 466-470.
11. Sheldrick G.M. (1997). SHELXS97, SHELXL97, Programs for Crystal Structures Solution and Refinement, University of Göttingen, Göttingen, Germany.
12. Sheldrick G.M. (2015). SHELXT-Integrated space-group and crystal-structure determination. *Acta Crystallogr*, 71(1), 3-8.